

Дилбар Обидовна Исмоилова

Dilbar Obidovna Ismoilova (11.08.1938)

O'zbekiston xalq artisti (2003). Zaynab Savriyevaning qizi. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tugatgan (1961). 1958 – 1987 yillar Hamza (hozirgi O'zbek Milliy Akademik drama) teatrida, 1987-yildan O'zbek davlat drama teatrida aktrisa. "Xolisxon" (Hamza) spektaklilagi Zuhra uning sahnada yaratgan ilk obrazidir. O'z ijodi davomida lirik, dramatik xarakterdagi turli obrazlar yaratdi: Qamarabonu (B.Avazov, "Furqat"), Kamola (R.Tagor, "Gang daryosining qizi"), Guli (Uygun, I.Sulton, "Alisher Navoiy"), Nuri (Oybek, "Qutlug qon"), Margarita (A.Dyuma, "Ajal minorasi"), Oyimjahon (K.Yashin, "Buxoro"), Lutfi (S. Ahmad, "Kelinlar qo'zg'oloni"), Anvara, Risolat (O'. Umarbekov, "Qiyomat qarz", "Shoshma, quyosh"), Uvaysiy (T. To'la, "Nodirabegim"), Xonzoda (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), Bayla (P.Qodirov, "Yulduzli tunlar"), Mastura satang (Hamza, "Paranji sirlari"), Gonerilya (U.Shskspir, "Qirol Lir"). U "Ganga va Jamna", "Hur qizlar", "Anna Karenina", "Morena Klara", "Muhabbat qahvasi", "Gvadalaupe" va boshqa filmlarda bir necha qahramonga ovoz bergan. "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Махмуд Исмоилов

Mahmud Ismoilov (1954)

1973 – 1977-yillarda Toshkent teatr va rassomlik san'at instituti da ta'lim olgan. 1977 – 1987- yillarda O'zbek davlat drama teatri aktyori. 1987 – 1996-yillarda O'zbek Davlat akademik drama teatri aktyori. 1996-1997 yillarda Madaniyat ishlari vazirligi san'at ishlari boshqarmasi boshlig'i. 1997 –

2013-yillardan O'zbek Milliy Akademik drama teatri aktyori. 2013 – 2015 yillardan O'zbek Milliy Akademik drama teatri direktori. 2015yildan yana O'zbek Milliy Akademik drama teatri aktyori sifatida faoliyat yuritayapti. 1988-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. M.Ismoilov mehnatsevarligi, talabchanligi va tinmay ijodiy izlanishi tufayli xalq olqishiga sazovor bo'lgan aktyorlardan biri. U teatrdan sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektaklida Husayn Bayqaro, keyinchalik Alisher Navoiy, "O'z arizasiga ko'ra"da Elyor, "Yulduzli tunlar"da me'mor Fazliddin, "Qiro'l Lir"da Edgar, "Usmon Nosir"da Cho'lpon, "Mirzo Ulug'bek"da Abbas, "Mehrobdan chayon"da Sultonali, "Kunduzsiz kechalar"da Fitrat, "Daraxtlar tik turib jon beradi"da Maurisio, "Uvaysiy"da Vaziri a'zam, "Omonat dunyo"da Jaloliddin, "Tortadurman jabrini"da ota, "Sizsiz o'tmas kunlarim"da Umarjon, "Eng suluv kelinchak"da Oltoy, "O'zbekcha raqs"da Vasya, "Rustam"da Ellickboshi kabi obrazlarni yaratgan. U o'ynagan har bir roli orqali insonlarning ichki olamini yuksak mahorat bilan ochib berib, tomoshabinlarning va hamkasblarining olqishlariga sazovor bo'ldi.

Муқаддас Холиқова

Muqaddas Xoliqova (14.04.1960)

Muqaddas Holiqova 1960-yil 14-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1977yili Toshkent Davlat san'at instituti "Teatr va kino" aktyorligi fakultetiga o'qishga kirib, 1981-yili o'qishni muvaffaqiyatli tugatgan. Shu yili O'zbek Milliy Akademik drama teatriga, aktirisa sifatida ishga qabul qilindi. Muqaddas Holiqova san'atdagi ijodining dastlabki yillaridan to shu kunga qadar, takrorlanmas obrazlar yaratib,

teatrning yetuk aktrisaridan biriga aylandi. U Hamzaning "Boy ila xizmatchi"sida Poshsha oyim, F.Musajonovning "Najot istab"ida qaynona, "Avg'on reportaji"da jurnalist, "Tuhmat"da qizil tanli, Karlo Gatssining "Baxtli gadolar"ida qiz, Shekspirning "Koriolan"ida ayol, O'. Hoshimovning "Qatog'on"ida ayol va bir qancha ko'p rollarni mahorat bilan ijro etgan. 2001-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'lgan. Muqaddas Holiqova bir qator videofilmlarda yorqin obrazlar yaratdi. "Alisher Navoiyda" kanizak, Cho'lponning "Kecha va kunduz", "Bobur" Jahongir Mirzoning onasi, M.Yunusovning "Layli va Majnun"ida enaga, M.Boboyevning "Ko'ngil ko'chalari"da o'quvchining onasi, M.Asadullayevning "Qirq tog'oraning qirq nog'orasi"da Tursinoy, "Shunchaki hazil" da ayol kabi rollarni mahorat bilan ijro etgan.

Гинзбург Александр Осипович

Ginzburg Aleksandr Osipovich (1916 – 23.06.1973)

Teatr rejissori. O'zbekistan xalq artisti (1959). Toshkent yosh tomoshabinlar teatri (1946–51), Hamza teatri (1951-58, 1960-65, 1971-73), Toshkent rus drama teatri (1958–60) bosh rejissor, "A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati" (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) (1951–65). Sahnalashtirgan spektakllari: «Dengizdagilar sharafiga», «Aybsiz aybdorlar», «Yulduzlar jamoli» (T. Xo'jayev bilan hamkorlikda), «Turkiya haqida qikoya» (A. Turdiyev bilan hamkorlikda), «Og'riq tishlar», «Qaroqchilar». «So'nggi pushaymon», «Gang daryosining qizi», «Jazoir – mening Vatanim», «Yuliy Sezar», «Mirzo Ulug'bek», «Tobutdan tovush», «Noma'lum kishi», «Qonli sarob», «Qashshoq qalb egasi» va boshqalar.

Азиза Бегматова

Aziza Begmatova (07.09.1943)

Aziza Begmatova 1943-yil 7-sentyabr sanasida Surxandaryo viloyatida tugʻilgan. Aktrisaning bolaligi urush yillariga toʻgʻri kelgan shu sababdan u bolalar uyida katta boʻlishga majbur boʻlgan. Maktabni tamomlagach aktrisa boʻlgan qiziqishi tufayli Toshkent teatr va rassomchilik sanʼati oliygohida tahsil olgan. U oʻz faoliyatini Abror Xidoyatov nomidagi Oʻzbek davlat drama teatrida boshlagan. Aziza Begmatova hozirgacha 50 dan oshiq film va spektakllarda qatnashgan. U nafaqat oʻzbek kinosida balki bir nechta rus filmlarida ham suratga tushgan. Ushbu aktrisa oʻzbek tomoshabinlariga “Checha” nomli spektaklidagi Checha obrazi orqali tanilgan. Shu boisdan koʻpchilik tomoshabinlar aktrisa haliga “Checha” nomi bilan tanishadi. Aktrisa oʻzining sanʼat sohasidagi koʻp yillik xizmatlari uchun “Oʻzbekiston xalq artisti” unvoni bilan taqdirlangan. Hozirgi kunda 76 yoshdagi Aziza Begmatova hali ham oʻzining aktrisalik faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Лола Бадалова

Lola Badalova (1928)

Lola Badalova 1928-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. 1945-yilda Toshkent kinostudiyasi (oʻsha paytdagi “Oʻzbekfilm” kinostudiyasi) qoshidagi kino aktyori maktab-studiyasini, 1945-yilda “A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik

san'ati" (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) institutining "Dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishini tamomlagan. (1951). 1946-yildan nomidagi Davlat akademik drama teatri aktrisasi bo'lib ishlagan. Hamza (hozirgi O'zbek Milliy Akademik drama) teatri sahnasida yuzga yaqin obrazlar yaratgan. Kinoda epizodik rollarda («Toxir va Zuhra» (1945, rej. Nabi G'aniyev)) rol o'ynay boshladi.), «Piano kontserti»). L.Badalovaning kinodagi ilk katta roli G.Kozintsev va L.Trauberglarning "Bo'ron" filmidagi Lola roli bo'ldi. U 20 dan ortiq filmlarda rol o'ynagan: «Askarlar tug'ilmaydi» («Mosfilm»), «Quyosh bilan qayt», «Biz seni kutamiz, yigit», «Asosiy kun», "Bir qatorda yuz satr", "Sen tomon", "Issiq quyosh ostidagi uy", "Senga shahar beraman", "Olovli qirg'oq", "Tashvish davri" va boshqalar. "Olovli yo'llar" seriali badiiy filmida Hamzaning onasi rolini ijro etgan. 500 ga yaqin filmni o'zbek tiliga dublyaj qilishda ishtirok etgan. O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan artist.

Ирода Мирзахоновна Алиева

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva (17.12.1929 – 07.06.1989)

O'zbekiston xalq artisti (1967). "A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati" (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) institutining "Dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishini tamomlagan (1951), Hamza (hozirgi O'zbek Milliy Akademik drama) teatrida ishladi (1951–1972), 1972–1989-yillar «O'zbekfilm» kinostudiyasida aktrisa. Nasiba («Og'riqtishlar»), Muqaddas («Chin muhabbat»), Shirin («Bir sevgi afsonasi»), Guzin («Turkiya haqida hikoya»), Kamola (R. Tagorning «Halokat» romani asosida yaratilgan inssenirovka – «Gang daryosining qizi»), Maryam («Jazoir, mening vatanim»), Asal («Sarvqomat dilbarim»),

Nazokat («Parvona») rollarida Aliyeva muvaffaqiyat qozondi va lirik rollar ijrochisi sifatida tanildi. Yuksak texnika, mukammal sahna nutqiga ega bo'lgan Aliyeva qahramonlarining dunyoqarashi va ichki kechinmasini o'ziga xos sharqona xususiyat, nazokat bilan ifodalashga erishgan.

Kinoaktyor teatr-studiyasida Nina (A. Kason, «Yetti faryod», 1973), Enaga (A. Korneychuk, «Platon Krechet», 1974) va boshqa rollarni ijro etdi. Kinoda: «Akmal, ajdaho va malika» (1980), «Akmalning yangi sarguzashtlari» (1983) filmlarida yalmog'iz kampir obrazini yaratdi.

Мелис Абзалов

Melis Abzalov (18.11.1938 – 26.10.2016)

O'zbek aktori, rejissori va ssenariychisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1987). M. Abzalov o'zbek kinosining asoschilaridan va eng yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. Melis Abzalovning eng mashhur filmlari "Suyunchi" (1982), „Kelinlar qo'zg'oloni“ (1984), "Armon" (1986) va „O'tgan kunlar“ (1997) filmlaridir. Melis Oripovich Abzalov 1938-yil 18-noyabrda Yangiyo'lda tavallud topgan. U 1961-yil "A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati" (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) institutining "Dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishini tamomlagan. 1962-yil "O'zbekfilm"da ishlashni boshlagan. Abzalov 1961-yil Toshkent davlat san'at institutini tugatgan. 1961-1962-yillar Yosh tomoshabinlar teatrida aktor bo'lib ishlagan. 1962 – 1965-yillar "O'zbekfilm" kinostudiyasida rejissor assistenti, keyinchalik rejissor va aktor, 1989-yildan "Vatan" kinostudiyasining badiiy rahbari bo'lib faoliyat yuritgan.

Abzalov ijodiga komediya janridagi filmlar yaqin bo'lib, ular o'ziga xos milliy bo'yoqlarga boyligi, xarakterlarning to'liq ochilganligi bilan ajralib turadi. Filmlarida yengil lirika o'tkir satirik epizodlar bilan uyg'unlashib ketadi. Abzalov aktor sifatida Abdulla („Yettinchi o'q“), Olloyorboy (“Inson qushlar ortidan boradi“), Eshon Zaynullo (“Qo'qon voqeasi“), Qorashoh (“Arslonning sarguzashtlari”) va boshqa obrazlarni yaratgan. Rejissor sifatida „Chinor ostidagi duel“, “Suyunchi“, “Kelinlar qo'zg'oloni“, “Armon“, “Maysaraning ishi“, “Ko'zlarim yo'lingda“, “O'tgan kunlar“ kabi filmlarni ishlagan.